

Texnikumga qabul jarayonlarni tashkil etish bo'yicha Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining hududiy bo'limlari bilan hamkorlikda umumta'lim maktablari o'quvchilari o'rtasida kasbga yo'naltirish tadbirlarini amalga oshirish;

Texnikumda o'quvchilarni yil davomida korxonalar va tashkilotlarning buyurtmalari asosida dual ta'lim shaklida o'qitishni tashkil etish;

egallagan kasb yoki mutaxassislik bo'yicha mehnat faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beradigan, yuqori darajada sifatli bilim olishni va kasbiy tayyorgarlikni ta'minlash;

tanlab olingan kasb yoki mutaxassislik bo'yicha bir yoki bir necha kvalifikatsiyani egallash jarayonida o'quvchilarning kasbiy layoqat, ko'nikma va malakalarini oshirish;

mutaxassislarni tayyorlash tizimi va mazmunini jamiyat ehtiyojlaridan, fan, madaniyat va zamonaviy innovatsion texnika yutuqlaridan kelib chiqqan holda takomillashtirish;

o'quvchilarda vatanparvarlik, milliy o'zlikni anglash, xalqning milliy, madaniy, tarixiy an'analariga hurmat, Vatan bilan g'ururlanish va iftixor tuyg'usini shakllantirish;

o'quvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning samarali shakllari va usullaridan foydalangan holda kamol toptirish;

davlat ta'lim standartlari talablariga ko'ra o'quvchilar egallashi lozim bo'lgan malaka va ko'nikmalarni o'quvchilar ongiga singdirish;

o'qituvchi, ta'lim oluvchilarning sog'lig'ini muhofaza qilish, sog'lom turmush tarzini joriy etish, ularning bilim olishi, turmushi va dam olishi uchun yetarli shart-sharoitlar yaratish;

tegishli ta'lim darajalari bo'yicha kadrlar tayyorlash uchun zarur moddiy-texnika, o'quv-metodik bazani yaratish va o'quv jarayoniga yuqori ish tajribasiga ega bo'lgan amaliyotchi mutaxassislarni jalb etib borish.

15. Texnikumning kasbiy ko'nikmalarni rivojlantirish yo'nalishidagi asosiy faoliyat yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

a) fuqarolarni ichki va tashqi mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan kasb-hunarga tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish, xorijiy tillarga o'qitish;

b) xorijda vaqtincha mehnat faoliyatini amalga oshirmoqchi bo'lgan fuqarolarni xorijiy ish beruvchilar talabi va xalqaro standartlar asosida kasb-hunarga tayyorlash va chet tillarga o'qitish, ularni xorijga ketishidan oldin moslashtirish tadbirlarini amalga oshirish;

d) xorijiy ish beruvchilar tanlovlarini o'tkazish va ularga xorijda ishlash uchun talab etiladigan hujjatlarni rasmiylashtirishda ko'maklashish;

e) ish beruvchilar bilan ishchi kasblarga bo'lgan ehtiyojlari va malaka talablarini o'rganish hamda kasb-hunarga tayyorlashda hamkorlik qilish;

g) ishchi kasblarni rivojlantirish va ommalashtirish;

j) ish beruvchilarga mehnat unumdorligini oshirish uchun kerakli kasblarni aniqlashda hamda xodimlarining malakasini oshirishda ko'maklashish;

z) ishchi kasblar bo'yicha kasbiy malakani baholash va tasdiqlash;

k) ishsiz va ish qidirayotgan fuqarolarni kasbga yo'naltirish, maslahatlar berish.